O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi

# Ашулачилар ансамбли

fanidan

# O‘quv-uslubiy majmua

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 - Gumanitar soha |
| Ta’lim sohasi: | 150 000 - San’at |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5151600 - Xalq ijodiyoti (ashula va raqs, Xalq ashula va raqs jamoalariga rahbarlik) |

**TOSHKENT 2018**

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 201__ yil "___" __________ dagi "____" -sonli fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**


N.Xolboyev O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi o'qituvchisi

M.Elov

ЎзДСМИ "Миллий қўшиқчилик" кафедраси доцент в.б.


**Taqrizchilar**:


Б.Дўстмуродов - O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi mudiri, dotsent

R.Qosimov - O'zDK "An'anaviy cholg'u ijrochilik" kafedrasi mudiri, professor

O‘quv-uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy kengashining 2018__ yil __ ___________dagi ___- sonli qarori bilan tavsiya etilgan.

**Mundarija**


Ma’ruzalar, amaliy yoki yakka mashg‘ulotlar mavzulari .................................. 4

Yakka mashg‘ulot uchun tavsiya etiladigan tahminiy asarlar ........................... 14

Mustaqil ta’lim uchun tavsiyalar ...................................................................... 47

Glossariy …………………………………………………………………… 48

Ilovalar: ........................................................................................................ 52

Fan dasturi .................................................................................................... 52

Ishchi o‘quv dasturi ........................................................................................ 63

Tarqatma materiallar ....................................................................................... 91

Baholash mezoni ............................................................................................ 109

## Kirish

"Ashulachilar ansambli" fanining tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli hamda sohaning ilk davridan to bugunga qadar bo'lgan davrdagi davriy shakllanishi jarayoni masalalarini qamrab olinadi.

Respublikamizda milliy musiqiy meros, mumtoz ashulalarni yanada mukammal chuqur o'rganish, ashula va raqs ansambli tashkilotchisi mutaxassislarini tayyorlashga ehtiyoj kattadir. Ushbu fanning maqsadi xalq xonandalik merosini chuqur o'rganib, uning ijro uslublari, mumtoz ashulalarning shaklan tuzilishi, usul sanoqlari, usul o'lchovi, milliy bezaklarni o'ziga xos ijro yo'llarini o'rganishdir.

## O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi – guruhli ijrochilikning tarixiy xususiyatlarini o'rganish, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona – Toshkent guruhli ijrochiligining o'rni va ahamiyati, musiqa xususiyatlari, janr qonuniyatlari hamda ijro an'analarini imkon qadar to'liq xolda yoritishdan iborat.

Fanni o'rganishda mutaxassislardan tashkilotchilik faoliyatida ansambl ish faoliyati natijalarini baholash va nazorat qilish, ansambl ijrochilik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniq belgilab olish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - guruhli ijrochilikga doir turli davrlarda yaratilgan adabiyotlarni tahlil va tavsif etish. Guruhli ijrochilikni tarixiy jihatlarini o'rganish, ularga aloqador manbalarni hozirgi ko'rinishlari bilan taqqoslash orqali farqli jihatlarini ko'rsatish zarur.

**Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Ashulachilar ansambli o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalda oshiriladigan amallar doirasida bakalavr:

-Ashulachilar ansambli ishini tashkil etishning aniq ish boshqarish mezoniga mos kelishi;

-Bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun talabalar qo'yidagilarni o'zlashtirishlari lozim;

-Ansambl ovoz guruhini aniqlash va qayd etish tizimlari;

-Talabalarni qo'shiq aytishda ovoz mashqlarini tutgan o'rni;

-Ashulachilar ansamblida hududiy uslubidan foydalanish yo'llari;

-Ashulachilar ansamblida milliy bezaklarni ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-Ashulachilar ansamblida nafas olishni tutgan o'rni va ashulachilar ansamblida talaffuzni ahamiyati;

-Ashulachilar ansamblida tiniq soz, talabalar ovozining sof jarangdorligini bilishi va ulardan foydalana olishi;

-Ashulachilar ansamblida talabalar ovoz diapazonini kengaytirish va o'stirishga erishish;

-Ashulachilar ansamblida o'zbek musiqiy janrlaridan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

## Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Ashulachilar ansambli fani umum kasbiy fan hisoblanib, 1,2,3,4,5,6,7,8 semestrlarda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy (sozandalar ansambli, ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti, an’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik, cholg‘u ijrochiligi, xalq raqs san’ati va sahnalashtirish, xalq musiqasini notalashtirish, vazn asoslari) va ixtisoslik (xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti, o‘zbek she’riyati va qo‘shiqchilik asoslari) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlik talab etiladi.

## Fanning gumanitar fanlar va san’at sohasidagi o‘rni

Zamon talabidan kelib chiqqan holda yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni bosqichma bosqich ravishda rivojlantira borish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va ishtirokini hamda mafkuraviy, badiiy, axloqiy munosabatlar mohiyatini tushunish, tahlil eta olish kabi ko‘nikmalarni hosil qilish orqali ijodkorlikka yo‘naltirishdan iboratdir. Ashulachilar ansambli xalq musiqiy ijodiyoti sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularning turlari, xillari, hamda ish faoliyatini o‘rganish bilan bog‘liq. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib amaliy ijro jihatlarini o‘rganishning ajralmas qismidir.

## Fanni o‘qitishdan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalar Ashulachilar ansambli fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning eng ilg‘or zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga molikdir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, nota va tarqatma ma’lumotlar, audio-video yozuvlaridan foydalaniladi.

## ASOSIY QISM: Fanga kirish

“Ashulachilar ansambli” fani (amaliy) ashulachilar ansambli tarixi, ustoz hofiz san’atkorlar, ashula aytish ijrochilik ko‘nikmalari, hamnafaslik ijroning bir vaqtda uyg‘un ijro qilinishi, ovozlarning nyuansi, ashulachilar ansambli uchun repertuar tanlash, asarning mohiyati, ashulachilar ansambli uchun asarlarni qayta moslashtirish, nota asosida va ustozlar ijrosidagi ijrolarni ravon ijro qilish va badiiy ijroni ta’minlash maqsad qilib olinadi. Bunda tanlangan asar bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab tanlangan asarlarning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, madaniyat, san’at va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

## Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

Fan bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

## Jamoaviy ijrochilik yo‘llari

Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va o‘ziga xosligi. Yakka va jamoa ijrochiligining o‘zaro uyg‘unligi hamda o‘zaro ta’siri. Musiqiy tovush sozi va sofligi. Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiY. Ijro mahoratini oshirish usullari. Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar. Erkaklar ovozi ansambli. Ayol xonandalar ansambli. Aralash ashula ansambllari. Guruhli ijroda cholg‘uchilar ansambli bilan uyg‘unlik. Ovoz sozlash mashqlari. Ovozlarni imkoniyatlariga ko‘ra turlarga ajratish. Tik turib kuylash va o‘tirib kuylash holatlari. Mavzuni shakllantirish xususiyatlari. Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari. Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o‘tkazish. Sahna madaniyati va xususiyatlari.

## O‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari

Jamoa ijrochiligi, katta ashula ijrochiligi, yalla ijrochiligi, doston ijrochiligi (hududiy), yakkaxon ijrochiligi, duet (hamnafaslik) ijrochiligi, mehnat qo‘shiqlari ijrochiligi, maqom ijrochiligi san’ati.

## Boshlang‘ich musiqa savodxonligi

Tovushlarning nomlari, nota yo‘li, notalarning cho‘zimi, ton, yarim va chorak tonlar, alteratsiya belgilari, major va minor ladlari, dinamik belgilari, takt oldi, pauzalar, intervallar, akkord va uch tovushliklar, harfiy tovushlar sistemasi, cholg‘u yo‘li, nota savodxonligi, yakkaxon qo‘shiq ijrochiligi, kalitlar, jo‘rsiz kuylash yo‘li.

## Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Ashulachilar ansamblining xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalar har semestrda “Ashulachilar ansambli” fanidan to‘rtta turli janrdagi asarlarni o‘zlashtiradi.

1. Xalq qo‘shiqlari va ashulalari;
2. Mumtoz qo‘shiq va ashulalar;
3. O‘zbek bastakorlari asarlari;
4. O‘zbek maqomlarining nasr qismidan namunalar.

## Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

## Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejasida rejalashtirilmagan.

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning amaliy guruhli ijrochilik xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

•Ashulachilar ansambli fani bo‘yicha ma’lumotlar jadvalini kengaytirish yo‘llarini o‘rganish;

•Ashulachilar ansambliga oid manbalarni to‘plash va ularni ijro qilishga erishish;

•Amaliy guruhli ijrochilik ko‘nikmasini mustahkamlash bo‘yicha ish olib borish;

•Hududiy musiqiy uslublar bo‘yicha asarlarni janrlar asosida to‘plash;

•Vazn asoslari, nota va she’r matni ustida ish olib borish;

Mustaqil ish bajariladigan mavzular bo‘yicha metodik savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda og‘zaki tarzda javob berish, har bir mavzu bo‘yicha muammoli masalalarni hal qilish yo‘llarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar kompleks mavzulari va bitiruv dasturlari bilan uzviylikda bajariladi.

## Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, ilg‘or texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

- Ashulachilar ansambli faniga tegishli guruhli ijro darslarida audio-video yozuvlari, kompyuter texnologiyalari yordamidan foydalanish usullaridan;
- Ashulachilar ansambli fani amaliy guruhli mashg‘ulotlarida sof sado,milliy bezaklar, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar


1. Y.Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) Toshkent, “Print-S” nashr. 2007 y.
2. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YunESKO tamg‘asi ostida 2007 y.
3. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” Toshkent, 2005 y.
4. M.Xudoynazarov “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” O‘z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
5. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” O‘z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
6.Б.Дўсмуродов “Яккахон қўшиқчилик” Тошкент 2016 й.


## Qo‘shimcha adabiyotlar


1. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat” nashr. 2008 y.
2. Sultonmurod Olim “Istiqlol – baxtim soadatim” Toshkent, “O‘zbekiston” Milliy kutubxonasi nashr. 2007 y.

3. R.Tursunov, S.Mannopov “An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uslubiyoti” Toshkent, 2003 y.
4. I. G‘aniyeva “Tanavorlar” Toshkent, “Uzinkomsentr” nashriyoti 2003 y.
5. X. Lutfullayev “Qo‘shiq va san’atkor” Toshkent, 2005 y.
6. O. Matyoqubov “Maqomot” “Musiqa” nashriyoti, Toshkent, 2004 y.
7. Q.Mamirov “Xalq qo‘shiqchiligi” Toshkent, 2006 y.
8. R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
9. N. Qosimov “O‘zbekiston bastakorlari” Rahmatjon Tursunov “Ijod dunyosi” nashriyoti, Toshkent, 2003 y.
10. I. Rajabov “Maqomlar” “San’at” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
11. R. Nosirov “Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

## O‘ZBEKISTON DAVLAT
## SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

## “MILLIY QO‘SHIQCHILIK” KAFEDRASI

| | |
|---|---|
| O‘quv bo‘limi tomonidan ro‘yxatga olindi | “TASDIQLAYMAN” O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| № BD 5111000, 5151600,-3.14, 3.10, 3-12 | ________________ ____________ |
| “____”___________ 2018 yil | “____”___________ 2018 yil |

# ASHULACHILAR ANSAMBLI

fanidan

# O‘QUV ISHCHI DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 | – | Gumanitar |
| Ta’lim sohasi: | 150 000 | – | San’at |
| | 110 000 | – | Pedagogika |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5151600 | – | Xalq ijodiyoti (xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik), (Ashula va raqs), |
| | 5111000 | – | (5151600-Xalq ijodiyoti (Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik)) |

| Talabaning o‘quv yuklamasi, soat | | | | | | | | Semestrlar soat | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Umumiy yuklama hajmi | Auditoriya mashg‘ulotlari | | | | | | Mustaqil ish | | | | | | | | |
| | Jami | Ma’ruza | Amaliy mashg‘ulot | Labor. ishi | Seminar | Kurs loyixasi (ishi) | | 1 | 2 | 3 | 4 | 3 | 4 | 7 | 8 |
| 994 soat (5151600-Xalq ijodiyoti (xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik) | 672 | | 672 | | | | 322 | 4 | 4 | 4 | 4 | 6 | 6 | 6 | 6 |
| (974-soat) 5111000 – Kasb ta’limi: ((5151600-Xalq ijodiyoti (xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik)) | 672 | | 672 | | | | 302 | x | x | 4 | 4 | x | x | 6 | 6 |

**Toshkent – 2018**

Fanning ishchi o‘quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligida ________________raqam bilan “___” ________ 201__ yilda ro`yxatga olingan namunaviy o`quv dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi: O’qituvchi N.Xolboyev

O‘quv ishchi dasturi “Xalq ijodiyoti” fakulteti “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi majlisida (“26” avgust 2017 yildagi 1-son bayonnoma) muhokama etildi va institutning badiiy, o‘quv-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri ____________ Доцент Б.Дусмуродов

Kotiba _____________ Замира

O‘quv ishchi dasturi institutning badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (“___” ________ 201__ yildagi __ -sonli bayonnoma)

Badiiy, o‘quv-uslubiy kengash raisi: ________

## Kirish

"Ashulachilar ansambli" fanining tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli hamda sohaning ilk davridan to bugunga qadar bo'lgan davrdagi davriy shakllanishi jarayoni masalalarini qamrab olinadi.

Respublikamizda milliy musiqiy meros, mumtoz ashulalarni yanada mukammal chuqur o'rganish, ashula va raqs ansambli tashkilotchisi mutaxassislarini tayyorlashga ehtiyoj kattadir. Ushbu fanning maqsadi xalq xonandalik merosini chuqur o'rganib, uning ijro uslublari, mumtoz ashulalarning shaklan tuzilishi, usul sanoqlari, usul o'lchovi, milliy bezaklarni o'ziga xos ijro yo'llarini o'rganishdir.

## O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi – guruhli ijrochilikning tarixiy xususiyatlarini o'rganish, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona – Toshkent guruhli ijrochiligining o'rni va ahamiyati, musiqa xususiyatlari, janr qonuniyatlari hamda ijro an'analarini imkon qadar to'liq xolda yoritishdan iborat.

Fanni o'rganishda mutaxassislardan tashkilotchilik faoliyatida ansambl ish faoliyati natijalarini baholash va nazorat qilish, ansambl ijrochilik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniq belgilab olish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - guruhli ijrochilikga doir turli davrlarda yaratilgan adabiyotlarni tahlil va tavsif etish. Guruhli ijrochilikni tarixiy jihatlarini o'rganish, ularga aloqador manbalarni hozirgi ko'rinishlari bilan taqqoslash orqali farqli jihatlarini ko'rsatish zarur.

**Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Ashulachilar ansambli o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalda oshiriladigan amallar doirasida bakalavr:

-Ashulachilar ansambli ishini tashkil etishning aniq ish boshqarish mezoniga mos kelishi;

-Bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun talabalar qo'yidagilarni o'zlashtirishlari lozim;

-Ansambl ovoz guruhini aniqlash va qayd etish tizimlari;

-Talabalarni qo'shiq aytishda ovoz mashqlarini tutgan o'rni;

-Ashulachilar ansamblida hududiy uslubidan foydalanish yo'llari;

-Ashulachilar ansamblida milliy bezaklarni ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-Ashulachilar ansamblida nafas olishni tutgan o'rni va ashulachilar ansamblida talaffuzni ahamiyati;

-Ashulachilar ansamblida tiniq soz, talabalar ovozining sof jarangdorligini bilishi va ulardan foydalana olishi;

-Ashulachilar ansamblida talabalar ovoz diapazonini kengaytirish va o'stirishga erishish; -Ashulachilar ansamblida o'zbek musiqiy janrlaridan unumli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

## Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Ashulachilar ansambli fani umum kasbiy fan hisoblanib, 1,2,3,4,5,6,7,8 semestrlarda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy (sozandalar ansambli, ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti, an’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik, cholg‘u ijrochiligi, xalq raqs san’ati va sahnalashtirish, xalq musiqasini notalashtirish, vazn asoslari) va ixtisoslik (xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti, o‘zbek she’riyati va qo‘shiqchilik asoslari) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlik talab etiladi.

## Fanning gumanitar fanlar va san’at sohasidagi o‘rni

Zamon talabidan kelib chiqqan holda yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni bosqichma bosqich ravishda rivojlantira borish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va ishtirokini hamda mafkuraviy, badiiy, axloqiy munosabatlar mohiyatini tushunish, tahlil eta olish kabi ko‘nikmalarni hosil qilish orqali ijodkorlikka yo‘naltirishdan iboratdir. Ashulachilar ansambli xalq musiqiy ijodiyoti sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ularning turlari, xillari, hamda ish faoliyatini o‘rganish bilan bog‘liq. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib amaliy ijro jihatlarini o‘rganishning ajralmas qismidir.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish, amaliy mashg‘ulotlarni ashula aytish an’analari asosida, talabalarning indiviual mahoratini hisobga olib erkin va sog‘lom ijodiy muhit yaratish, zamon talablariga mos ijodiy dasturlar tayyorlash.

“Ashulachilar ansambli” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash – **kompyuterda musiqiy dasturlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash orqali amalga oshiriladi.**

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** yakka, hamnafaslik va jo‘rnavozlik hamda o‘zaro o‘rganishga asoslangan jamoaviylik.

**O‘qitish vositalari:** xalq ashulalari, o‘zbek bastakor va kompozitorlari, “Shashmaqom”ning nasr bo‘limi nota matnlari bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat amaliy mashg‘ulotlar, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida hamda butun kurs davomida o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida konsert dasturi shaklida ijodiy ishlar baholanadi.

“Ashulachilar ansambli” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, turli audio, video, CD, DVD materiallaridan foydalaniladi. “Internet” tarmog‘ida berilgan sohaga oid ma’lumotlardan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, ijodiy dasturlar namoyishi orqali joriy va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

## ASOSIY QISM: Fanga kirish

“Ashulachilar ansambli” fani (amaliy) ashulachilar ansambli tarixi, ustoz hofiz san’atkorlar, ashula aytish ijrochilik ko‘nikmalari, hamnafaslik ijroning bir vaqtda uyg‘un ijro qilinishi, ovozlarning nyuansi, ashulachilar ansambli uchun repertuar tanlash, asarning mohiyati, ashulachilar ansambli uchun asarlarni qayta moslashtirish, nota asosida va ustozlar ijrosidagi ijrolarni ravon ijro qilish va badiiy ijroni ta’minlash maqsad qilib olinadi. Bunda tanlangan asar bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab tanlangan asarlarning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan

ijtimoiy-siyosiy va demokratik oʻzgarishlar, madaniyat, san’at va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning soʻnggi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

**Fanning nazariy mashgʻulotlari mazmuni**

Fan boʻyicha nazariy mashgʻulotlar namunaviy oʻquv rejada koʻzda tutilmagan.

**Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi janrlari**

Jamoa ijrochiligi, katta ashula ijrochiligi, yalla ijrochiligi, doston ijrochiligi (hududiy), yakkaxon ijrochiligi, duet (hamnafaslik) ijrochiligi, mehnat qoʻshiqlari ijrochiligi, maqom ijrochiligi san’ati.

**Musiqa savodxonligi**

Tovushlarning nomlari, nota yoʻli, notalarning choʻzimi, ton, yarim va chorak tonlar, alteratsiya belgilari, major va minor ladlari, dinamik belgilari, takt oldi, pauzalar, intervallar, akkord va uch tovushliklar, harfiy tovushlar sistemasi, cholgʻu yoʻli, nota savodxonligi, yakkaxon qoʻshiq ijrochiligi, kalitlar, joʻrsiz kuylash yoʻli.

Izoh: Amaliy mashgʻulotlarning tarkibiy qismiga kiritilgan mavzular alohida holda bitta mashgʻulot koʻrinishida oʻtkazilmaydi. Aksincha, har bitta semestrda ijro etilishi rejalashtirilgan asarlarni oʻzlashtirish davrida kompleks tarzda qoʻllaniladi va ijro etilayotgan asarning har tomonlama mukammal oʻzlashtirilishiga xizmat qiladi. “Ashulachilar ansambli” fani boʻyicha har semestrda kamida 8 ta musiqiy asar oʻzlashtiriladi. Ashulachilar ansamblida ijro etiladigan asarlar asosan xalq qoʻshiqlari va ashulalari, mumtoz qoʻshiq va ashulalar, oʻzbek bastakorlari asarlari, oʻzbek maqomlarining nasr qismidan namunalar boʻladi. Ashulachilar ansambli repertuaridagi asarlar – ashulachilar ansambli uchun, erkaklar ovozi, ayollar ovozi, yakkaxon xonanda va ashulachilar ansambli uchun boʻlishi mumkin.

**Amaliy mashgʻulot tarkibiy qismlarining mazmuni.**

**1. Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va oʻziga xosligi -** borasidagi ma’lumotlar ashulachilar ansambli oʻqituvchisi tomonidan ogʻzaki tarzda yetkazilib, bunda ashulachilar ansamblining turlari, ularning tarkibi, boshqa ashulachilar ansambli va xor jamoalari bilan taqqoslash, ijro etiladigan asarlarning soʻzlari va nota matnlari, ansamblda xonanda va sozandalarning joylashish holati, ularning tasnifi va oʻziga xos xususiyatlari, Respublikamizda faoliyat koʻrsatayotgan professional va havaskor jamoalari, ularning tarkibi va ijro uslublaridagi farq kabi masalalar yoritiladi.

**2. Yakka va jamoa ijrochiligining oʻzaro uygʻunligi hamda oʻzaro ta’siri -** borasidagi ma’lumotlar ogʻzaki tarzda yetkazilish qatorida amaliy ijro davrida ham sinab koʻriladi. Bunda oʻqituvchi ansambl tarkibidagi har bitta xonanda talabadan unga tegishli asarning soʻzini boʻgʻinlarda ohanglarga mosligini ijro ettirishi, keyin boshqalarning shu jumlani birgalikda ijro etishini talab qilishi orqali yakka ijro bilan guruhli ijroning farqi amaliy tahlil etilishiga erishiladi. Guruhli ijro davrida har bitta xonandaning oʻz ijrosini

umumiy ijroga boʻysundirish, shu bilan bir qatorda ijro qilish koʻnikmalari malakalari tarbiyalanadi.

**3. Musiqiy tovush sozi va sofligi**ga erishish uchun birinchi navbatda ashulachilar sozandalar cholgʻulari sozlanadi. Bunda sozandalar ansamblidagi chang yoki nay cholgʻulariga qarab cholgʻular sozlanadi va tekshirib koʻriladi.

**4. Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiya -** xonandalar turli tovush birikmalarini qalam tiliga yaqin holda kuylatish. Bunda lablar, til va tilchak harakatlari faolligiga, ularning toʻgʻri yoʻnaltirishiga erishish lozim. Jamoa ijrochiligida matnni toʻgʻri talaffuz etilishi muhimdir. Mashgʻulotlarda matndagi soʻzlarning har bir boʻgʻini, har bir harfi, umuman, soʻzlarning ravon va aniq talaffuziga erishish talab qilinadi. Soʻzlarni aytish jarayonida ovoz shakllantirishning a'zolarining holatiga koʻproq vaqt ajratish talab etiladi.

**5. Ijro mahoratini oshirish usullari** - Ijro mahoratini oʻstiruvchi mashqlarni tavsiya qilish, asarlarda uchraydigan diapazon jihatdan va nola qilish jihatdan murakkab joylarni oʻzlashtirishni soddalashtirish, shuningdek asarning tonalligida mashqlar qilish ogʻiz boʻshliqlarini ijro holatiga tayyorlash, tinimsiz ijro mahhoaratini oʻstirish maqsadida mashqlar qilish lozim. Avval asarni toʻliq ovozda emas, balki falset ovozda ijro qilish tavsiya etiladi. Bunda, har bitta talaba xonandaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda, alohida vazifalar berilishi mumkin.

**6. Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar -** ijro etilayotgan asarlarni xona va bozgoʻylar orqali shakli aniqlanadi va har xonani alohida, keyn bozgoʻylarni qoʻshish orqali musiqiy jumla hosil qilinadi. Ushbu xona va bozgoʻylar ashulaning rivojlanishiga qarab yigit va qizlar ovoziga taqsimlanadi. Ijro vaqtida forte, piano, metsso forte, metsso piano, pianissimo, fortissimo, sforsando, subito piano, kreshendo va diminuendo kabi dinamik belgilarga rioya qilish talab etiladi. Bunda sozandalar ansambli bilan birgalikda ashulachilar ansambli yoki yakkaxonlarning ovoz nyuansi oʻqituvchi tomonidan boshqariladi.

**7. Erkaklar ovozi ansambli, ayol xonandalar ansambli, aralash ashula ansambllari –** erkaklar ovozi uchun yozilgan va diapazoni jihatidan bas, tenor, alt ovozlari xos asarlar hamda jumlalar kuylanadi. Ayol xonandalar ansamblida oʻziga xos asarlar kuylanadi. Bunda asardagi soʻzning ma'nosi, ovoz diapazoni va ovoz temblarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Aralash ashulachilar ansamblida asosan yigit va qizlarning toʻliq ijro va yakkanavozlar hamda hamnafaslarning ijrosi koʻzda tutiladi.

**8. Guruhli ijroda cholgʻuchilar ansambli bilan uygʻunlik –** ashulachilar ansamblida guruhlarga boʻlinib ishlash mumkin. Bunda mashgʻulotlar umumiy holda boʻlib, yigitlar ovozi va qizlar ovozi hamda yakkanavozlarga boʻlinadi. Ovozlarning taqsimlanishiga koʻra cholgʻuchilar ansambli bilan birgalikda yigitlar yoki qizlar ovozini alohida ishlab ular oʻrtasidagi uygʻunlik aniqlanadi.

**9. Ovoz sozlash mashqlari –** tanlangan asarning tonalligidan kelib chiqqan holda ovozlar sozlanadi. Unda asarda uchraydigan musiqiy bezaklar: molish, nolish, titrama qochirimlarga mos ravishda ovoz imkoniyatlaridan foydalanish va toʻgʻri sadolantirish tushuniladi.

**10. Ovozlarni imkoniyatlariga koʻra turlarga ajratish –** talabalarning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular bas, bariton, tenor, alt, metsso soprano, soprano ovozlariga ajratiladi. Shuningdek, ovozlarga asarlardagi ijro etiladigan ohanglar talabalarning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

**11. Tik turib kuylash va o‘tirib kuylash holatlari** – ashulachilar ansamblida tanlangan asarga qarab ashulachilar ansambli to‘liq tik turgan holda ijro etadi. Agarda sozandalar ansambli va yakkanavoz bilan bo‘lganda ijroda o‘tirib kuylash holati kuzatiladi.

**12. Mavzuni shakllantirish xususiyatlari** – Tanlangan asar ustida ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Yangi tarqatilgan asar muallifi va asarning o‘ziga xos tomonlari haqida pedagog tomonidan og‘zaki ma’lumotlar beriladi. Ustoz-shogird an’anasi tarzida ustoz talabalarga kuylab beradi va talabalar bilan birgalikda so‘z matnlariga qaragan holda asarni dastlabki xonasini ijro qilib, so‘ng bosqichma-bosqich asarni oxirigacha ijro qiladi.

**13. Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari** – sozanda ansambli asarning musiqiy bo‘laklarini ijro etishida bir xildagi shtrixlar, nola, qochirimlar, molish, nolish, titrama qochirimlarga ahamiyat bergan holda ijro etishi lozim bo‘ladi. Bunda tanlangan asarning shtrixlarini har bir xona va bozgo‘ylarda to‘g‘ri qo‘llashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**14. Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o‘tkazish** – har bir kurs ashulachilar ansambli tanlangan asarlarni meyoriyda ijro qilgandan so‘ng uni konsert sahnalarida ijro qilish imkoniyati beriladi. Bunday jarayon har o‘quv yilining yakunida kafedra mudiri boshchiligida ijodiy hisobot konserti tashkil etiladi.

**15. Sahna madaniyati va xususiyatlari** - ijodiy va hisobot konsertlari, shuningdek boshqa tadbirlarda ashulachilar ansamblining chiqishida sahna madaniyatiga rioya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bunda, sahnaga kirib kelish, joylarni egallash, sahnada stulda o‘tirish, olqishlarga javob berish, ijrodan bo‘sh vaqtda stulga o‘tirish o‘quv mashg‘ulotlarida o‘rgatilishi zarur.

***Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*** chigil yozdi, zanjir mashqi, domino, muammo, klaster ijodiy ish, yo‘naltirish.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Y.Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) Toshkent,
2. “Print-S” nashr. 2007 y.
3. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YunESKO
4. tamg‘asi ostida 2007 y.
5. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli”
6. Toshkent, 2005 y.
7. M.Xudoynazarov “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” O‘z R
8. FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
9. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” O‘z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.


## AMALIY MASHG‘ULOTLAR
### 7-semestr

| T.r. | Amaliy mashg‘ulotning tarkibiy qismlari | Auditoriya soati | Mustaqil ta’lim soati |
|---|---|---|---|
| 1. | Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va o‘ziga xosligi | 6 | 2 |
| 2. | Yakka va jamoa ijrochiligining o‘zaro uyg‘unligi hamda o‘zaro ta’siri. | 6 | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3. | Musiqiy tovush sozi va sofligi. | 6 | 2 |
| 4. | Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiY. | 6 | 2 |
| 5. | Ijro mahoratini oshirish usullari. | 6 | 4 |
| 6. | Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar. | 6 | 4 |
| 7. | Erkaklar ovozi ansambli, ayol xonandalar ansambli, aralash ashula ansambllari. | 8 | 4 |
| 8. | Guruhli ijroda cholg'uchilar ansambli bilan uyg'unlik. | 8 | 4 |
| 9. | Ovoz sozlash mashqlari. | 8 | 4 |
| 10. | Ovozlarni imkoniyatlariga ko'ra turlarga ajratish. | 8 | 4 |
| 11. | Tik turib kuylash va o'tirib kuylash holatlari. | 8 | 4 |
| 12. | Mavzuni shakllantirish xususiyatlari. | 8 | 4 |
| 13. | Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari. | 8 | 4 |
| 14. | Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o'tkazish. | 8 | 4 |
| 15. | Sahna madaniyati va xususiyatlari. | 8 | 4 |
| | **JAMI** | **108 ?** | **52?** |

***Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:*** chigil yozdi, zanjir mashqi, domino, muammo, klaster ijodiy ish, yo'naltirish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Y.Rajabiy "O'zbek maqomlari" (Shashmaqom) Toshkent,
2. "Print-S" nashr. 2007 y.
3. O. Matyoqubov "Shashmaqom saboqlari" Toshkent YunESKO
4. tamg'asi ostida 2007 y.
5. M.Xudoynazarov "An'anaviy ashulachilar ansambli"
6. Toshkent, 2005 y.
7. M.Xudoynazarov "An'anaviy yakkaxon qo'shiqchilik" O'z R
8. FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
9. M.Xudoynazarov "An'anaviy ashulachilar ansambli" O'z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.

**Tavsiya etiladigan asarlar ro'yxati**

| № | Mavzuning (asarning) nomlanishi | Musiqa muallifi | G'azal, she'r muallifi |
|---|---|---|---|
| 1. | "Sarahbori бузрук" I,II,III Taronalari | Xalq kuyi | Лутфий, Bobur, Xislat, Halq |
| 2. | "Савти калон" (Рост maqomidan) | Xalq kuyi | Нодира |
| 3. | "Soqinomasi, Qashqarchasi, | Xalq kuyi | Xalq, Habiybiy |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Uforisi” | | |
| 4. | “Sarahbori oromijon” | Xalq kuyi | Bobur |
| 5. | “O‘zbekiston” | | |
| 6. | “Она юртим таровати” | Кўлдош Мамиров | Қўлдош Маиров |
| 7. | **“**Бахт ялласи” | Набижон Ҳасанов | Миртемир |

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR**
**8-semestr**

| T.r. | Amaliy mashg‘ulotning tarkibiy qismlari | Auditoriya soati | Mustaqil ta’lim soati |
|---|---|---|---|
| 1. | Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va o‘ziga xosligi | 6 | 2 |
| 2. | Yakka va jamoa ijrochiligining o‘zaro uyg‘unligi hamda o‘zaro ta’siri. | 6 | 2 |
| 3. | Musiqiy tovush sozi va sofligi. | 6 | 2 |
| 4. | Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiY. | 6 | 2 |
| 5. | Ijro mahoratini oshirish usullari. | 6 | 4 |
| 6. | Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar. | 6 | 4 |
| 7. | Erkaklar ovozi ansambli, ayol xonandalar ansambli, aralash ashula ansambllari. | 8 | 4 |
| 8. | Guruhli ijroda cholg‘uchilar ansambli bilan uyg‘unlik. | 8 | 4 |
| 9. | Ovoz sozlash mashqlari. | 8 | 4 |
| 10. | Ovozlarni imkoniyatlariga ko‘ra turlarga ajratish. | 8 | 4 |
| 11. | Tik turib kuylash va o‘tirib kuylash holatlari. | 8 | 4 |
| 12. | Mavzuni shakllantirish xususiyatlari. | 8 | 4 |
| 13. | Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari. | 8 | 4 |
| 14. | Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o‘tkazish. | 8 | 4 |
| 15. | Sahna madaniyati va xususiyatlari. | 8 | 4 |
| | **JAMI** | **108?** | **52?** |

***Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*** chigil yozdi, zanjir mashqi, domino, muammo, klaster ijodiy ish, yo‘naltirish.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Y.Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) Toshkent,
2. “Print-S” nashr. 2007 y.
3. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YunESKO
4. tamg‘asi ostida 2007 y.
5. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli”
6. Toshkent, 2005 y.

7. M.Xudoynazarov “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” O‘z R
8. FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
9. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” O‘z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.

**Tavsiya etiladigan asarlar ro‘yxati**

| № | Mavzuning (asarning) nomlanishi | Musiqa muallifi | G‘azal, she’r muallifi |
|---|---|---|---|
| 1. | “Dugoh” | Xalq kuyi | S.Abdulla |
| 2. | “Savti miskin” | Xalq kuyi | A.Navoiy |
| 3. | “Ul qaro ko‘z” | I.Ikromov | Furqat |
| 4. | “Savti ushshoq” | Rost maqomidan | Munis |
| 5. | “Истиқлол таронаси” | Mamairov.Q | Mamairov.Q |
| 6. | “Ўзбекистон” | И.Вохобов | И.Вахобов |

**Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.**

Mazkur fanning asosiy qismi amaliy mashg‘ulotlar tarzida tashkil etilib, quyidagi yo‘nalish bo‘yicha talabalarni uzluksiz ketma-ketlikda tarbiyalab boradi: ovozni sozlashni, dastur tanlashni o‘rganish, asarning janr xususiyatlari jihatdan tavsiflay olish (uslubiy), asarning mazmuni va o‘lchov xususiyatlari, ohang yo‘nalishi bo‘yicha lad xususiyatlari, asar ustida ishlash, musiqa savodxonligi, xalq musiqa ijodiyoti fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, fanning maqsad va vazifalari.

Asosiy qismda qo‘yiladigan talablar bakalavrni imkoniyatlarini bilish, individual tarzda repertuar tanlash, dasturni soddadan murakkabga qadar yuksaltirgan holda o‘rganuvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mamlakatimizda san’at sohasida bo‘layotgan islohatlarni hamda fan va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

**Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

“Ashulachilar ansambli” bo‘yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta'minlangan.

Amaliy mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchi repertuar tanlaydi, asarni talaba bilan tahlil etadi, o‘rganuvchida tasavvur hosil bo‘ladi. Auditoriyadan tashqarida talaba yakka darsga tayyorlanadi, ovoz mashqlarini bajara olish malakalarini egallaydi, mashqlarni muntazam ijro qilib o‘z mahoratini oshiradi, uyga vazifa sifatida berilgan asarning so‘zi va nota matnlari bilan mustaqil ishlashni, intonatsiya, usul, dinamik belgilarga rioya qilish va bajarish malakalarini, badiiy talqin etish ko‘nikmalarini hosil qiladi, dasturni yod oladi. Bundan tashqari, asarning musiqiy va so‘z mualliflari haqida keng ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida qo‘shimcha adabiyotlar o‘qiydi, ko‘nikma va malaka hosil qiladi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, musiqiy ijrochilik faoliyatiga oid ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, taniqli xonanda-ijrochilar yozuvlarini to‘plash, kontsert chiqishlarini kuzatib borish, sahna madaniyati va qoidalarini egallash, ijodkorlar bilan suhbatlar, uchrashuvlarda ishtirok etish, audio, video yozuvlar jamg‘arish va foydalanish, o‘z musiqiy savodxonligi hamda ijrochilik mahoratini oshirish ustida muntazam mashq qilish, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib, ilmiy maqola tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, hududiy uslublarni bir-biridan farqlash, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini, dasturni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

## Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

| Semestr | Mustaqil ta'lim mavzulari | Beriladigan topshiriqlar | Bajarish muddati | Hajmi soatda |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Jamoa ijrochiligining nazariy asoslari va o'ziga xosligi. Yakka va jamoa ijrochiligining o'zaro uyg'unligi hamda o'zaro ta'siri. Musiqiy tovush sozi va sofligi. Jamoa ijrochiligida tovush hosil qilish, intonatsiya va diksiY. Ijro mahoratini oshirish usullari. Musiqiy jumla, tovush qator va dinamik belgilar. Erkaklar ovozi ansambli. Ayol xonandalar ansambli. Aralash ashula ansambllari. Guruhli ijroda cholg'uchilar ansambli bilan uyg'unlik. Ovoz sozlash mashqlari. Ovozlarni imkoniyatlariga ko'ra turlarga ajratish. Tik turib kuylash va o'tirib kuylash holatlari. Mavzuni shakllantirish xususiyatlari. Musiqiy asar ustida ishlash bosqichlari. Ijodiy hisobot, konsert chiqishlarga tayyorlash va o'tkazish. Sahna madaniyati va xususiyatlari. | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 34 |
| 2 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 34 |
| 3 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 34 |
| 4 | | Individual topshiriqlarni bajarish, musiqiy asar matnini yodlash | 1-18 haftalar | 34 |
| 5 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 52 |
| 6 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 52 |
| 7 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 52 |
| 8 | | Individual topshiriqlarni bajarish | 1-18 haftalar | 28 |
| **Jami mustaqil ta'lim:** | | | | **136 soat** |

## Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- musiqiy asarlar ijrosida musiqiy cholg'ular, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida musiqiy dasturlardan foydalaniladi;

- musiqiy asarlar matnini o‘rganish va tahlil qilishda chigil yozdi, zanjir mashqi, ijodiy ish, yo‘naltirish va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;

**“Ashulachilar ansambli” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni**

“Ashulachilar ansambli” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy hamda yakuniy nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ijro uy vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan o‘rganilgan musiqiy asarlar bo‘yicha konsert dasturini namoyish qilish orqali baholanadi.

**JN** o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **JN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **JN** qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“Ashulachilar ansambli” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.ga taqsimlanadi.

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100 | A’lo | Xalq cholg‘ulari to‘g‘risida aniq tasavvur va bilimga ega bo‘lish, Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro etish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 71-85 | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik. Ijro qila olmaslik. |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha anikdanadi: $K = \frac{V*O'}{100}$

bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda); *O‘* -fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

• Joriy **JN** turlari bo‘yicha 55 ball va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

• Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

**• JN** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

**• JN** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy nazorat uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

**Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

| T/R | Ko‘rsatkichlar | JN ballari | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Mak. ball | 1 JN | 2 JN | 3 JN | 4 JN |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Yakka mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy ijro mahoratining holati | 17 | 0-4 | 0-4 | 0-4 | 0-5 |
| 2 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Yakka mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy ijro mahoratining holati | 18 | 0-4 | 0-4 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Yakka mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy ijro mahoratining holati | 17 | 0-4 | 0-5 | 0-4 | 0-4 |
| 4 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi. | 18 | 0-5 | 0-5 | 0-4 | 0-4 |
| | **Jami JN ballari** | **70** | **17** | **18** | **17** | **18** |

**YAN konsert dasturi ijrosi natijasiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.**

**Yakuniy nazoratda konsert dasturi ijrosini baholash mezoni**

Yakuniy nazorat konsert shaklida amalga oshiriladi. Konsert sifati, ijro mahorati, ovozning aniq talaffuzi, asarning dinamik belgilariga amal qilinishi, sahna madaniyati va ovoz ijro texnikasini egallaganligi orqali baholanadi. YAN dan talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**
**Asosiy adabiyotlar**


1. Y.Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) Toshkent,
2. “Print-S” nashr. 2007 y.
3. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YunESKO
4. tamg‘asi ostida 2007 y.
5. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli”
6. Toshkent, 2005 y.
7. M.Xudoynazarov “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” O‘z R
8. FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.

9. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” O‘z R FAAK bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat” nashr. 2008 y.
2. Sultonmurod Olim “Istiqlol – baxtim soadatim” Toshkent, “O‘zbekiston” Milliy kutubxonasi nashr. 2007 y.
3. R.Tursunov, S.Mannopov “An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uslubiyoti” Toshkent, 2003 y.
4. I. G‘aniyeva “Tanavorlar” Toshkent, “Uzinkomsentr” nashriyoti 2003 y.
5. X. Lutfullayev “Qo‘shiq va san’atkor” Toshkent, 2005 y.
6. O. Matyoqubov “Maqomot” “Musiqa” nashriyoti, Toshkent, 2004 y.
7. Q.Mamirov “Xalq qo‘shiqchiligi” Toshkent, 2006 y.
8. R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
9. N. Qosimov “O‘zbekiston bastakorlari” Rahmatjon Tursunov “Ijod dunyosi” nashriyoti, Toshkent, 2003 y.
10. I. Rajabov “Maqomlar” “San’at” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
11. R. Nosirov “Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.

## TEXNOLOGIK KARTA
**Ta’lim texnologiyasi (Lektsiya va amaliy mashg‘ulotlar uchun)**
**Metodik ko‘rsatmalar**

An’anaviy ashulachilar ansambli darsi – bo‘lajak havaskorlik ashula va raqs ansambllarini shakllantiruvchi asosiy fan bo‘lganligi uchun, unga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish zarurligini har bir talabaga uqtirib borish nihoyatda muhimdir.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsining vazifasi boshqa maxsus ixtisoslashtiruvchi havaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash metodikasi, xalq cholg‘ulari, o‘zbek she’riyati va qo‘shiqlarining asoslari, xalq kuy va qo‘shiqlarini notalashtirish, musiqa nazariyasi, xalq an’anaviy yakkaxon qo‘shiqchiligi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘lab olib borilganda muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

Ayniqsa an’anaviy qo‘shiqchilik darsi va ovoz qo‘yish bo‘yicha yakka darslarda, yakka holda va ansambl bilan kuylashda qo‘shiqchilikning ayrim shartlariga birday amal qilish nihoyatda muhimdir. Ko‘povozli va an’anaviy qo‘shiqchilik darsining o‘qituvchilari yakka va ansamblda kuylash hamda ovoz qo‘yish o‘qituvchilari bilan birgalikda har bir talabaning darsligi, o‘rni uning ovoz xususiyatini, shuningdek, musiqaviy qobiliyatini hisobga olgan holda belgilashadi.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsi talabalarga g‘oyaviy estetik tarbiya berishning muhim vositasi hisoblanadi. U yuksak saviyali bo‘lishi hamda g‘oyaviy va xalqchillik shartlariga mos holda tanlanishi mumkin.

Mohirona tanlangan dars hajmi talabalarni ijodiy jihatdan o‘stiradi, badiiy didini rivojlantiradi, kasbga bo‘lgan muhabbatini yanada oshiradi.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsining ishi muayyan rejasi asosida ko‘tariladi va u ayni paytda davlat imtixonining ham dasturi hisoblanadi. Bu dasturlar bitiruvchi kurs talabalari tomonidan tanlangan va ushbu darsning o‘qituvchilari ma’qullagan asarlardan tashkil topadi. Ijroga tavsiya etilgan asarlar orasida talabalarning o‘zlari tomonidan notalashtirilgan, badiiy jihatdan yuksak bo‘lgan o‘zbek xalq qo‘shiq va kuylari alohida taqsinga sazovor bo‘ladi.

O‘quv darsi ko‘lamiga talabalarning kelajakda mustaqil ishlay boshlaganda o‘rganishlari mumkin bo‘lgan asarlardan kiritish ayniqsa foydalidir.

Yillik dastur bir kontsert bo‘limidan oshmasligi lozim. Barcha qo‘shiqlar o‘qituvchi tomonidan shu o‘quv yilida diplom himoya qiluvchi talabalar o‘rtasida taqsimlanadi.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsining o‘qituvchisi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. U kursning barcha ijodiy faoliyatlari va badiiy yuksakligini ta’minlashi, kuylashning asosiy usul va yo‘llarini belgilab berishi, zamonaviy xalq ijrochiligi tajribasini talabaga javob bera oladigan darajada amalga oshira olishi kerak.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsi o‘qituvchisining vazifasi asosan quyidagilardan iborat:

- kursning o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, kundalik mashg‘ulot jadvalini tuzish;
- kurs darsining ishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy masalalarni o‘z vaqtida hal etish, (kursni kontsertlarga chiqarishi tashviqotini uyushtirish, xonandalarning sahna harakatini nazorat qilib borish, kiyim-kechaklar, bezaklar ahvolini ko‘rib borish va h.k.)

- talabalarning diplom ishlarini uyushtirish, pedagogik soatining bajarilishini kuzatib borish (xor partiturasini bilish va uning musiqaviy-badiiy mazmunini to‘g‘ri ochib berish, ansambl bilan ishlashning metod va usullarini aniq belgilay olishi) va h.k.

An’anaviy ashulachilar ansambli darsi mashg‘ulotlarida ovoz yuritish katta ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat ashulachilar ansamblini sozlashda, balki ularning ovozlarini o‘stirib ashulachilik ijrochiligi mahoratini rivojlantiradi. Ovoz hosil qilishning yakka uslubini ishlab chiqarishga yordam beradi.

**Mavzu: Mumtoz qo‘shiqchilik san’ati va uning o‘ziga xos jihatlari hamda “Сарахбори бузрук” Халқ musiqasi, Лутфий bo‘yicha amaliyot mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasining modeli**
**(mustaqil ta’lim)**

| O‘quv vaqti 8 soat | |
|---|---|
| Mustaqil ta’lim mashg‘ulotining tuzilishi | 1.Шашмақомга ва унинг тарихига doir adabiyotlar, maqolalar bilan tanishish.<br>2.Ю.Ражабий номидаги мақом ансамбли иро йўли хусусида.<br>3.Asarning magnit yozuvi, disk variantidan tinglang.<br>4.Асарнинг мусиқий қурилмаси, диапозони, ўлчови, вазни билан танишиш.<br>5.асарнинг сарахборга кириш муқаддима қисмини ўрганиш |
| O‘quv mashg‘ulotining maqsadi | Mavzuga doir bilimlarni mustahkamlash. Asarni kuylash malakalarini shakllantirish. |
| Pedagogik vazifalari<br>1. Mumtoz qo‘shiqchilik san’atiga doir bilim va malakalarini o‘stirish.<br>2. Qo‘shiqni kuylash jarayonida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish.<br>3. Kuylash texnologiyalarini shakllantirish. | O‘quv faoliyatining natijalari<br>1. Fanga doir bilim va malakalarga ega bo‘ladi.<br>2. Qo‘shiqdagi o‘lchov, doira usuli, sur’ati, ohangdagi vaznlarni his qiladi.<br>3. Kuylashda ovoz apparatidan qanday foydalanish qonun qoidasi bilan yaqindan tanishadi, uni amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘la boshlaydi. |
| Ta’lim usullari. | Amaliy namunaviy ijro, savol – javob, suhbat. |
| O‘quv faoliyatini tashkil qilishning shakllari. | Yakka tartibda talabalar bilan ishlash, mustaqil ijroga ko‘nikma hosil qilish, noana’naviy ta’lim. |

| | |
|---|---|
| Ta'lim vositalari | Musiqa cholg'usi (rubob va boshqa cholg'ular doira) SD, DVD |
| Baholash | Akadem kontsert |

**2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi**
**(mustaqil ta'lim)**

| Ishlash bosqichlari vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich<br>Amaliy mashg'ulotga kirish – 10 minut | 1. Ovoz sozlash texnologiyalari.<br>2. Tayanch nuqta uchun mashqlar.<br>3. Unli harflarni talaffuz qilish. | 1. To'g'ri nafas olish va to'g'ri tovush hosil qilish.<br>2. Qomatni to'g'ri saqlash.<br>3. Unli va undosh harflar talaffuzini bilish. |
| II bosqich<br>Asosiy mavzu ustida ishlash va muhokamasi – 25 minut | 1. Qomatni to'g'ri saqlashga o'rgatish.<br>2. Nafasni burun orqali yumshoq olish.<br>3. Olingan nafasni pastki qovurg'alar atrofida joylash.<br>Xotirjam tovush chiqarish. | 1. Qomatni to'g'ri saqlashga o'rgatish.<br>2. Nafas olishni mashq qilish.<br>3. Elkani ko'tarmasdan qovurg'alar pastiga nafas olish.<br>To'g'ri tovush hosil qilish ustida ishlash. |
| III bosqich<br>Baholash – 10 minut | 1. Bilimlarini sinab ko'rish.<br>2. Kuylash malakalarini baholash. | 1.Asarni amalda ijro etish.<br>2.Asarga doir ma'lumot va musiqiy nazariyalarini to'g'ri ko'rsatib berish. |

**Mavzu № 2.2. O'zbek xalq qo'shiqlari tarixi**
**"савти калон" xalq musiqasi, mavzusiga**
**texnologik karta**

| Faoliyat bosqichlari | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | Pedagog | Talaba |
| 1 – bosqich<br>Kirish<br>daqiqa | 1.Xalq qo'shiqlari yaratilishi haqida ma'lumot berish. Namunalar ijro etish.<br>2."Ul kun janon" qo'shig'ining ohangi, muallifi bilan tanishtirish. Asarni kuylashga doir tayyorgarlik. | 1. Xalq qo'shiqlari, ijro yo'llari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.<br>2. Yangi asarni ijro yo'lini o'rganadi. Mualliflari bilan tanishadi.<br>3. Ovozni to'g'ri yo'lda |

| | | |
|---|---|---|
| | 3. Talabaning ovoz xususiyati va uni tarbiyalashga doir ovoz sozlash. | ishlatish, nafasni tejash, unli harflarni bir meyorda kuylash malakalariga ega bo‘ladilar. |
| 2 – bosqich<br>Asosiy bosqich<br>daqiqa | 1. Asarning o‘lchovi, doira usuli, ohang yo‘nalishi o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.<br>2. Asardagi temp, ijro etishning o‘ziga xos tomonlarini singdiradi.<br>3. Ijro etish yo‘l – yo‘riqlari hirgoyi va rostmana ovozlar bilan kuylab berish orqali o‘rgatiladi. | 1. Qo‘shiqni o‘rganishga doir qonun -qoidalarga amal qilishga o‘rganadi.<br>2. Musiqiy jihatdan tinglab asta – sekin xirgoyi yo‘lida bo‘lak – bo‘lak o‘rganish uchun o‘zini hozirlaydi.<br>3. O‘qituvchi bilan birga hamda mustaqil tarzda asarni ijro etish mukammal o‘rganiladi. |

# <u>Masalalar va mashqlar to‘plami</u>
## OVOZ HOSIL BO‘LISHI

Nafas olgandan so‘ng kuylash jarayonida ovoz paydo bo‘ladi. Bu tovush to‘satdan hosil qilish (attaka) deyiladi. Ovozni to‘satdan jadallik bilan hosil bo‘lishi keskin, qudratli chiqishi-kuchli attaka deb ataladi.

Bu qo‘shiqni shu shaklda ijro etish bolalarning tovush hosil qilish a’zolarini faollashtiradi. Tovushning tez boshlanishi tiniq, sof talaffuzning chiqishiga yordam beradi. Lekin bolalarning baqirmasdan, qichqirmasdan ashula aytishlariga zamin yaratish kerak. Ovozning muloyim, mayin boshlanishi–mayin attaka deb ataladi.

Lekin boshlang‘ich bosqichda bu shaklda tovush kuchsiz holda tuzilishi mumkin. Bunda rahbar mashqlarda kuchli attaka bilan mayin attaka shakllarini almashtirib turishi lozim. Yorqin, chiroyli ovoz bilan qo‘shiqlarni ijro etishda artikulyatsiya, diktsiya (so‘z talaffuzi) katta rol o‘ynaydi. Kichkintoylar ovozining tusi (tembr) notekis bo‘ladi, xiralashadi. Chunki ashula aytganda unli tovushlarning tuzilishi so‘zlashgandagiga qaraganda ajralib turadi.

Unli tovushlar–ijroning asosidir. Ular tufayli ovozning xonandalik mahorati shakllanadi va rivojlanadi. Unli tovushlarning aniq, yaxshi jaranglashi uchun bolalarga ovoz hajmining hamma tovushlarini bir tekisda, yuqori pozitsiyada ijro etishlarni o‘rgatish lozim.

Quyidagi mashqlardan foydalansa bo‘ladi.




Oldingi mashqlarni «LYu» «DU» bo‘g‘inlari bilan ijro etish lozim. Keyinchalik so‘zlar bilan qaytarsa bo‘ladi.

Yopiq (ya’ni «niqobdor») ovozning jaranglashiga «O» yoki «Yo» tovushlariga aytiladigan mashqlar yordam beradi.




Keyinchalik «I», «A», «Yo» tovushlar ustida ishlashga o‘tish kerak.




Unli tovushlarni bir holatda tuzish va ijro etishga intilish kerak. Mashqlarda unli tovushlarni almashtirib turish mumkin.

Masalan:




Yangi qo‘shiqlarni o‘rganganda jumlalarni har xil unli tovushlarda ijro etish foydali.

Undosh tovushlarga ham ahamiyat berish lozim. Ularni qisqa va aniq talaffuz etish kerak.

## XONANADALAR OVOZINI SOZLASH

Tovushlarni tiniq, sof talaffuz etish–bu vokal-xor ijrosining asosidir. Bunga birinchi darsdan boshlab ahamiyat berish kerak.

Vokal jamoalariga qatnashadigan talabalar har xil musiqaviy qobiliyatga ega bo‘ladi. Biri kuylarni sof, tiniq talaffuz bilan qaytaradi, boshqalarining eshitish qobiliyati rivojlanmagan bo‘ladi. Shunday talabalar ham uchraydiki, ular tovushlarni aniq eshitib turib, ularni to‘g‘ri talaffuz qilolmaydilar. Noto‘g‘ri talaffuzning sababini aniqlash uchun har bir bolani alohida tekshirish lozim.

Talabalarga mashqlarni, qo‘shiqlarni har xil dinamik tusda o‘rgatish kerak. Shunda ularning e’tibori oshadi va tiniq, sof talaffuzga intilishadi. Odatda xor sozi garmonik (vertikal) umumiy xor sozi va melodik (gorizontal) har bir vokal-xor guruhining sozidan iborat.

Melodik soz - intervallarni, major va minor bosqichlarini aniq talaffuz bilan ijro etilishi.

Garmonik soz - uch tovushlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishi. Jamoalarning to‘g‘ri sozlanishi major va minor gammalarining to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalarini bilishga bog‘liq. Major gammasi quyidagicha kuylanadi.



Birinchi bochqich mustahkam-barqaror kuylanadi. Ikkinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi bosqichlar yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi.

To‘rtinchi bosqich pasayishiga moyillik bilan kuylanadi.



***Natural minor gammasi.*** Birinchi bosqich yuqorilatishga moyilllk bilan kuylanadi. Ikkinchi, to‘rtinchi, beshinchi, ettinchi bosqichlar yuqorilatishiga moyillik bilan kuylanadi. Uchinchi, oltinchi bosqichlar pasayishiga moyillik bilan kuylanadi.

***Garmonik minor talaffuzi***



Ettinchi bosqich yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi (yuqoridan pastga tushganda va pastdan yuqoriga ko‘tarilganda)

*Melodik minor talaffuzi*



Oltinchi va ettinchi bosqichlarda kuy pastdan yuqoriga ijro etilganda yuqorilatishga moyillik bilan kuylanadi. Yuqoridan pastga kuylanganda–pasayishga moyillik bilan talaffuz qilinadi.

## *INTERVALLAR TALAFFUZI*

Sof intervallar (kvarta, kvinta, oktava) mustahkam-barqaror kuylanadi. Talabalar shu intervallarni sof talaffuz qilishlari uchun quyidagi mashqlardan foydalanishlari mumkin.

Shu intervallarning sof jaranglashi uchun ularning orasini tovushlar bilan to‘ldirish kerak.

Hamma katta intervallar bir tomonlama kengayishiga moyillik bilan talaffuz qilinadi.




Hamma kichik intervallar bir tomonlama torayishiga moyillik bilan talaffuz qilinadi.



# AN’ANAVIY XONANDALIKDAN OVOZ MASHQLARI

O‘quvchining ovoz bilan ishlash jarayonida uning ovoziga mos mashqlarni tanlay bilish dars samaradorligini oshiradi. Mashqlar xalq og‘zaki ijodining kuychan namunalari asosida amalga oshirilsa o‘quvchi zerikmaydi. Unda o‘tilayotgan darsga nisbatan qiziqish uyg‘onadi. Mashqlar dastlab ovozni to‘g‘ri yo‘naltirish, nafasni tejab ishlatishga qaratiladi. Shubhasiz, birinchi o‘rinda bu jarayonda nafas olishga alohida e’tibor berish kerak. Asta-sekin qo‘shiq kuyi talab etadigan ifodaviy vositalar, musiqiy jilolar, mashq yordamida mukamallashtirilib boriladi. O‘quvchi ovozi bilan bajariladigan mashqlar bir-birini ko‘p takrorlamasligi kerak. Hatto bir maqsadga yo‘naltirilgan mashqlar ham usul, kuy jihatlari bilan xilma-xil bo‘lsa, bu darsning sermazmun bo‘lishiga olib keladi. Agar mashqlarda o‘tiladigan mavzuning barcha badiiy xususiyatlari aks etgan bo‘lsa, mavzuni o‘zlashtirish oson kechadi. Mashqni bajarish jarayonida o‘quvchining ijro vaqtidagi umumiy holati, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish mashqni bajarish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi.

Qadimda mashqlar tanbur jo‘rligida o‘ziga xos tarzda olib borilgan. Ovozda asosan maqom ohanglari va zamzamalari mashq sifatida ijro etilgan. Ustozlar buni ovozni yurgizish, tomoqni qizitish kabi iboralar bilan ifodalashgan. Ya’ni, bu bugungi kundagi mashq deyilmagan.

Tanburning birinchi pardasida Iroq, Segoh ohanglari mashq qilingan. Ya’ni, ovoz shu ohanglarga moslangan. Ikkinchi pardasida Muhayyari Iroq ohanglaridan namunalar kuylangan. Ovozning pastki pardalari mana shu ohanglar asnosida qizdirilgan. Uchinchi pardasida Rost, Ushshoq yo‘llari, to‘rtinchi pardasida Buzruk kuylari, beshinchi pardada Savti Kalon, Savti Ushshoq parchalari, oltinchi pardada esa Navo, Bayot zamzamalari ovozni chiniqtirish, yurgizish, qizdirish maqsadida kuylangan. Mashqlar davomida unli tovushlarning cho‘zimi tilni aylantirib, ovozni burunga urish bilan boyitib borilgan. Mashqlarning yana bir asosiy vazifasi an’anaviy xonandalikka xos urflarning ovozdagi ifodasini bo‘rttirib ko‘rsatish kerak edi, o‘sha davrda. Masalan, Toshkent-Farg‘ona ijrochilik yo‘lida ovozning ko‘krak qafasining ko‘tarilgan holatda chiqishi va uni labga urilishi oqibatida nimasi bilandir nayni eslatuvchi sadosini his qilamiz. Buxoro va Xorazm yo‘llarida esa sadolanayotgan ovoz (albatta u to‘g‘ri shakllangan bo‘lsa) gumbazdan chiqayotgan sehrli bir sadoni eslatadi. Xonandalar bizning tilimizda ovoz mashqi deb ataluvchi amallarni bajarayotganda mana shu holatlarga alohida e’tibor berishgan. Biroq shuni afsus bilan aytish kerakki, o‘sha davrda ham, bizning davrimizda ham an’anaviy xonandalik bo‘yicha o‘quvchilarga mo‘ljallangan mashqlardan iborat darsliklar deyarli nashr qilinmagan.

Bugungi yoshlar tafakkuriga turli musiqiy ohanglarning shiddat bilan singib borayotganligi ovoz mashqlarining tanbur yordamida amalga oshirilishini bir qadar qiyinlashtirmoqda. Ma’lumki, tanburda har bir maqomning o‘z pardasi bor. Demak, ham bir maqom o‘z pardasida mashq qilinishi lozim. Agar buni xonandaning ovoz imkoniyatlari ko‘tarmasa, tanburning sozi pasaytirilishi yoki ko‘tarilishi mumkin. Ammo tanburdagi maqomlarning boshlanish joylari deyarli o‘zgartirilmagan.

O‘quvchining musiqiy ongini milliy ohanglar bilan to‘ldirish uchun ustozlar ta’biri bilan aytganda uning qulog‘ini pishirish uchun mashqlarning barcha butun va yarim pardalarda bajarilishi talab etiladi. Tabiiyki, maqomlarda mavjud tamom va notamom pardalar boshqa cholg‘ularda tanburdagi singari chiroyli sadolanmaydi. Shunga qaramasdan nay, g‘ijjak, rubob kabi sozlarda notamom pardalarni aniq va tiniq

sadolantirish imkoniyatlari ko‘proq. Kalon, Savti Ushshoq parchalari, oltinchi pardada esa Navo, Bayot zamzamalari ovozni chiniqtirish, yurgizish, qizdirish maqsadida kuylangan. Mashqlar davomida unli tovushlarning cho‘zimi tilni aylantirib, ovozni burunga urish bilan boyitib borilgan. Mashqlarning yana bir asosiy vazifasi an’anaviy xonandalikka xos urflarning ovozdagi ifodasini bo‘rttirib ko‘rsatish kerak edi, o‘sha davrda. Masalan, Toshkent-Farg‘ona ijrochilik yo‘lida ovozning ko‘krak qafasining ko‘tarilgan holatda chiqishi va uni labga urilishi oqibatida nimasi bilandir nayni eslatuvchi sadosini his qilamiz. Buxoro va Xorazm yo‘llarida esa sadolanayotgan ovoz (albatta u to‘g‘ri shakllangan bo‘lsa) gumbazdan chiqayotgan sehrli bir sadoni eslatadi. Xonandalar bizning tilimizda ovoz mashqi deb ataluvchi amallarni bajarayotganda mana shu holatlarga alohida e’tibor berishgan. Biroq shuni afsus bilan aytish kerakki, o‘sha davrda ham, bizning davrimizda ham an’anaviy xonandalik bo‘yicha o‘quvchilarga mo‘ljallangan mashqlardan iborat darsliklar deyarli nashr qilinmagan.

Bugungi yoshlar tafakkuriga turli musiqiy ohanglarning shiddat bilan singib borayotganligi ovoz mashqlarining tanbur yordamida amalga oshirilishini bir qadar qiyinlashtirmoqda. Ma’lumki, tanburda har bir maqomning o‘z pardasi bor. Demak, ham bir maqom o‘z pardasida mashq qilinishi lozim. Agar buni xonandaning ovoz imkoniyatlari ko‘tarmasa, tanburning sozi pasaytirilishi yoki ko‘tarilishi mumkin. Ammo tanburdagi maqomlarning boshlanish joylari deyarli o‘zgartirilmagan.

O‘quvchining musiqiy ongini milliy ohanglar bilan to‘ldirish uchun ustozlar ta’biri bilan aytganda uning qulog‘ini pishirish uchun mashqlarning barcha butun va yarim pardalarda bajarilishi talab etiladi. Tabiiyki, maqomlarda mavjud tamom va notamom pardalar boshqa cholg‘ularda tanburdagi singari chiroyli sadolanmaydi. Shunga qaramasdan nay, g‘ijjak, rubob kabi sozlarda notamom pardalarni aniq va tiniq sadolantirish imkoniyatlari ko‘proq. Shu bois ovoz mashqlari ana shu sozlar jo‘rligida diatonik va xromatik pardalarda birin-ketinlik bilan tamom va notamom pardalarga e’tibor bergan holda bajarilsa ayni muddao bo‘lar edi, menimcha.

Mashqlarni fortepiano jo‘rligida bajarish ayniqsa, mavzuni shu soz jo‘rligida o‘quvchiga ijro ettirish ovozdagi ba’zi pardalarning noto‘g‘ri sadolanishiga, notamom pardalarning noqisligiga sabab bo‘lishi mumkin. Yana shuni unutmaslik kerakki, ovozda moslanuvchanlik xususiyati juda kuchli bo‘ladi, ya’ni o‘quvchi ovoziga qaysi sozda jo‘r bo‘linsa, ovoz o‘sha soz ta’sirida shakllanib boradi va unga moslashib qolishi ham mumkin. Dars o‘tish jarayonida mashqlarni va mavzuni milliy sozlar jo‘rligida amalga oshirilishi talab etiladi. Men, milliy sozlarimiz hisoblanmish chang, qonun kabi sozlarda o‘quvchi bilan mashqlarni bajarmaslikni tavsiya etgan bo‘lardim. Chunki bu sozlarda notamom pardalarni sadolantirish imkoniyati umuman yo‘q.

## Mashqlar


1.Му, му, му, му, му, му, му, му,
му, му, му, му, му, му, му, му му.
2.Ми, ми, ми, ми, ми, ми, ми, ми,
ми, ми, ми, ми, ми, ми, ми, ми,
ми.
Қолган барча асарлар ҳам шу аснода ярим тонлар билан юқори ва пастга ҳаракати давом эттирилади.
А...
О...


A…
O…
A…
O…
A…
O…
A…
O…


A…
O…
A…
O…
M…
H…
M…
H…
M…
H…


М…
Н…
м…
н…
М…
Н…
м…
н…
м…
м…
1.Ла…
2.Лу…
3.Лў…
4.Ло…
5.Ли…
1.Ла…
2.Лу…
3.Лў…
4.Ло…
5.Ли…


1.Ла…
2.Лу…
3.Лў…
4.Ло…
5.Ли…
1.Ла…
2.Лу…
3.Лў…
4.Ло…
5.Ли…
1.Ла…
2.Лу…
3.Лў…
4.Ло…
5.Ли…


1.Му, му, му, му, му, му, му, му, му,
2.Ми,...
3.Ма,...
4.Мэ,...
5.Мў,...
му, му, му, му, му, му, му, му, му, му, му, му,
му, му, му, му, му, му, му, му, му.
1.Му, му, му, му, му, му, му, му, му, му,
2.Ми,...
3.Ма,...
4.Мэ,...
5.Мў,...
му, му, му, му, му, му, му, му, му, му.
1.Му, му, му, му, му, му, му, му, му,
2.Ми,...
3.Ма,...
4.Мэ,...
5.Мў,...
му, му, му, му, му, му, му, му, му.
1.Му, му, му, му, му, му, му, му,
2.Ми,...
3.Ма,...
4.Мэ,...
5.Мў,...
му, му, му, му, му, му, му, му,
му, му, му, му, му, му, му, му, му, му.
А...
О...

# Ey sarvi ravon

Nodira g'azali
S.Kalonov musiqasi




ling
Ey xas - ta ko'n-gul
fi - rog' i - chin - da
dam - ur - ga - li qol
- ma - di ma - jo - lin
Ey No - di - ra lo - fi
ishq u - rar - sen
mash- hu - ri xa - lo -
- - yiq o'l di xo - li
Ey sar - vi ra-von
na - dur ha - yo - ling
jon o'r - ta - di
va' da - i vi - so - lin ga
va' da - i vi- so - ling

# Ul kun jonon

Muqimiy g'azali
O'zbek xalq kuyi



**Nazorat uchun savollar (Joriy, ON,Yan)**

1.Ashula ijro etish davomida nafas olishning necha turi mavjud?

2.Erkaklarning oʻrtacha ovozi qanday ataladi?

3. Ayollar oʻrtacha ovozi qanday ataladi?
4. Erkaklar baland ovozi qanday ataladi?
5.Ayollar baland ovozi qanday ataladi?
6.Biryoki ikki ijrochi tomonidan raqsibilan ijro etiladigan qoʻshiq qanday ataladi?
7.Bir, ikki yoki uch ijrochi tomonidan hech qanday cholgʻu asbobi joʻrligisiz, qoʻlida likopcha bilan ijro etiladigan ashula nomini toping?
8.Erkaklarning past tovushi qanday ataladi?

9.Doʻmbira yoki dutor joʻrligida doston yoʻllarida ijro etish bilan birga, oʻzlari turli mavzuda she'r va dostonlar yaratuvchilar kimlar?

10.Hech qanday cholgʻu asbobi joʻrligisiz chapak chalib ijro etiladigan davra qoʻshigʻi qanday ataladi?

11.Ikki ijrochi tomonidan tuzilgan ansambl qanday nomlanadi?

12.Besh ijrochi tomonidan tuzilgan ansambl qanday ataladi?

13.Maqomlarning Nasr boʻlimidagi birinchi shoʻbada keladigan ashula yoʻli boshlanishi qanday nomlanadi?

14. Oltita ijrochi tomonidan tuzilgan ansambl nomini aniqlang?

15.Ashulani bir kishi tomonidan ijro etilishi qanday nomlanadi?

16.Uch pogʻona kengligidagi interval qanday nomlanadi?

17.Uch ashulachi ijrochi tomonidan tuzilgan ansambl nomini aniqlang?

18.Xorazm viloyatida shoira, sozanda va ashulachi xotin-qizlar qanday ataladi?

19."Shashmaqom"dagi Buzruk va Rost maqomining nasr boʻlimi ikkinchi guruh shoʻʻbalari qanday ataladi?

20.Jizzax viloyati, Forish tumani "Chorvador" ashula va raqs xalq ansambli qachon tashkil topgan?

21.Toʻy marosimida aytiladigan qoʻshiq qanday nomlanadi?

22.Maqom yoʻllarini ijro etuvchi xonandalar nomini ayting?

23.Maqom yoʻllarini ijro etuvchi sozanda va xonandalar guruhi qanday nomlanadi?

24.Musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashib turishi qanday qanday nom bilan yuritiladi?

25.Musiqa tovushining hosil boʻlishi, tuzilishi va sozanda va xonandalarni oʻrganuvchi fan qanday nomlanadi?

26.Ashula aytganda yoki biror cholgʻu asbobida chalganda unga joʻr boʻlish qanday nomlanadi?

27.Ashula aytganda soʻzning bir boʻgʻinida ovozni titratib turish qanday nomlanadi?

28.Birvaqtda eshitilayotgan ikki yoki ko‘p ovozlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati qanday ataladi?

## **Umumiy savollar**

1.Xalq unvoniga ega bo‘lgan ansambllar necha yilda qayta sinovdan o‘tkaziladi?

2.Xalq unvoniga ega bo‘lgan badiiy havaskorlik jamoalari kim tomonidan qayta sinovdan o‘tkaziladi?

3.Bastakor va kompozitor tomonidan keng omma ijrosiga mo‘ljallangan qo‘shiq qanday ataladi?

4.Ikki ashulachining navbatma-navbat etiladigan ashula janrini nima deb ataladi?

5.Qaysi ashula "yalla" janriga mansub?

6."Segoh maqomi" "Shashmaqom" tartibidagi nechanchi maqomligini aniqlang?

7."Shashmaqom"ga kiruvchi maqom yo‘linining to‘rtinchisini aniqlang?

8.Xonandalik ijrosida ashulaning eng yuqori cho‘qqisi qanday nomlanadi?

9."Shashmaqom"dagi oltinchi maqomning nomini aniqlang?

10."Shashmaqom"dagi ikkinchi maqomning nomini aniqlang?

11.Xorazm olti yarim maqomlariga kiruvchi maqomning birinchisini aniklang?
12.Xorazm olti yarim maqomlariga kiruvchi maqomning ikkinchisini aniqlang?
13.Xorazm olti yarim maqomlariga kiruvchi maqomning uchinchisini aniqlang?
14.Xorazm olti yarim maqomlariga kiruvchi maqomning to‘rtinchisini aniqlang?
15. Xorazm olti yarim maqomlariga kiruvchi maqomning beshinchisini aniqlang?

16."Shashmaqom"ning uchinchi maqomini aniqlang?

17.Qozoq va qirg‘iz xalqlarining baxshi va sozandalari do‘mbira jo‘rligida, ijro qiluvchilar nomini aniqlang?

18.Musiqada ikki misrali aytiladigan so‘z nima deb aytiladi?

19. Mukammalashgan va keng ko‘lamli shaklga ega, odatda lirik va dramatik mazmunli tugallangan asar nomini aniqlang?

20.Erkak va xotin-qizlardan tuzilgan ovozlar jamoasi nima deyiladi?

21.Erkaklarning bariton (o‘rtacha) ovozi, qaysi oktavalarda kuylanadi?

22.Surxondaryo viloyati "Shalola" xalq ashula va raqs ansambli qachon tashkil topgan?

23.Respublikada nechta xududiy uslub mavjud?

24.Xorazm maqomlari nechta qismdan iborat?

25.Yakka ijroda qo‘shiqni necha kishi ijro etishini belgilang?

26.O‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligining asosini qanday mezonlar belgilashini ayting?

27."Shashmaqom"ning joylashish tartibini to‘g‘ri ko‘rsating?

28.Ashulachilar ansambli fani necha yil o‘qitiladi?

## Tarqatma materiallar
### “Shashmaqom” to‘g‘risida

“O‘n ikki maqom” Markaziy Osiyo xalqlarida, tahminan, XI-XVIII asr boshlarida Buxoroda yuzaga kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida XIV-XV asrlar adabiyot va san’atning ravnaq topgan davri bo‘lgan. Musiqa amaliyotida bastakorlik san’ati juda rivojlandi, maqom kuy va ashula yo‘llarini yaratishda ma’lum qoidalar, yangicha uslublar yuzaga keldi. O‘sha davr shoir, adib va olimlari; Navoiy, Jomiy, Xusayniy, Bobur, Vosifiy va boshqalar. XIV-XV asrlarda bastakorlik an’anasi yuksak darajada bo‘lganligi, XVI-XVIII asrlarda esa bu an’ana yanada rivojlangan.

Musiqa risolalarida bastakorlik san’ati, bastakorlar va ularning ijodi, kuy yaratishda ishlatilgan amal, savt, naqsh, kor, peshrav, zarbayn, rixta kabi uslublar hamda kuy qismlarini anglatuvchi xona, bozgo‘y, sarxona, miyonxona kabi maqom yo‘llarida mavjud bo‘lgan. Iboralar ashulalarda avjlarini ishlatish asoslari, doira usullari-mustaxallar, cholg‘u naqoratlari haqidagi mulohazalar, bastakorlik san’ati va bastakor sozandalar ijodini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga maqomot tartibini jumladan shashmaqom ichki qonuniyatini tushunishda ham katta yordam beradi.

“Shashmaqom”-Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlaridan iborat. Har bir maqom ikki bo‘limdan – cholg‘u va ashula ya’ni “Mushkilot” va “Nasr” bo‘limlaridan iborat. Xorazmda esa “Mansur” yoki “Chertim” va “Manzum” yoki “Aytish” yo‘li deb ham ataladi.

Har bir maqomning cholg‘u bo‘limida Tasnif, Tarj’, Gardun, Muxammas, Saqil va boshqa iboralar bilan nomlangan bir necha qismlar bo‘lib, ular qaysi maqom tarkibida bo‘lsalar, shu maqom nomi bilan qo‘shilib “Tasnifi Buzruk”, “Tarj’e Buzruk”, “Garduni Segoh”, “Muxammasi Iroq”, “Saqili Navo” kabi ataladi.

Tasnif – yaratilgan asar ma’nosini, Tarj – qaytarma, Gardun – falak gardishi, Muxammas – beshlik, (beshlangan) Saqil – vazmin ma’nosini bildiradi.

Bu qismlar maqomning har birida mustaqil kuy – mavzularga ega bo‘lsa-da, tuzilish jihatidan bir – biridan deyarli farq qilmaydi.

## Glossariy

1. **Maqomi ushshoq. “Ushshoq”** arabcha bo‘lib, oshiq so‘zining ko‘pligidir, ya’ni “oshiqlar” demakdir. Bu maqomga kirgan kuy va ashulalar lirik (ishqiy) she’rlar bilan ijro etiladigan hamda oshiqlar tilidan aytiladigan asarlar bo‘lgani uchun unga **“Ushshoq”** deb nom berilgan bo‘lishi kerak.
2. **Maqomi Navo.** Navo so‘zi ohang, mungli kuy ma’nolarida keladi, ya’ni navo chekish demakdir.
3. **Maqomi Buslik.** Musiqaga oid risolalarda ko‘rsatilishicha Buslik so‘zi atoqli at-Abu Salikdan olingan.
4. **Maqomi Rost.** Rost so‘zi o‘zbek, tojiklarda rost, ya’ni mos keladigan ma’noda ishlatiladi.

5. **Maqomi Husayniy.** Husayniy so'zi ma'lum shaxsning ismi bo'lishi kerak.

6. **Maqomi Hijoziy.** Xijoz Arabistonda Makka va Madina hamda ular atrofidagi past tekislikka ishora etilgan maqomdir.

7. **Maqomi Raxoviy.** Kavkabiy (XVI-asr)ning risolasida ko'rsatilishicha, bu Rum shaharlaridan birining nomi bo'lgan.

8. **Maqomi Zangula.** Zangula so'zi tuya bo'yniga ilinadigan yoki do'mbiraga bog'lanadigan qo'ng'iroq (zang) ma'nosida keladi.

9. **Maqomi Iroq.** Iroq iboroasi hammaga ma'lum mamlakatning nomiga nisbat berilgan maqom nomidir.

10. **Maqomi Isfahon.** Isfahon Eronning mashhur shaharlaridan biri.

11. **Maqomi Zirafkand.** Zirafkand pastga sakrash, tushish va to'shakka yotish payti ma'nolarida keladi.

12. **Maqomi Buzrug.** (Buzruk) katta, ulug' ma'nolarida kelib, ulug' maqom demakdir. Hatto "Shashmaqomdagi" shaklida ham u juda ko'p kuy va ashulalarni o'z ichiga olgan.

"**O'n ikki maqom**" yo'li tartibida, ular asosida ishlangan "Ovoz" nomi bilan mashhur bo'lgan olti turli lad uyushmalari mavjud.

Ovozlar 6 ta bo'lib; Navro'z, Salmak, Gardoniya, Gavasht, Moya, va Shahnoz.

**1.** **Navro'z.** Ovozi Navro'z eski kalendarlarda yangi yilning birinchi kuniga nisbat berilgandir. U Husayniy maqomi lad tovushqatoriga mos keladi.

**2.** **Salmak.** Uning lug'aviy ma'nosi manbalarda berilmaydi.

**3.** **GardoniY.** "Aylanuvchi aylanma yo'lli" ma'nosida keladi. U Gardun iborasi bilan ham atalib, Shashmaqom cholg'u yo'llarida uchraydi.

**4.** **Gavasht.** Jam'lar tarkibi 76 doirani tashkil etadi.

**5.** **MoY.** Bu ovoz ham to'rt ham besh pog'onali bo'lishi mumkin.

**6.** **Shahnoz.** Bu 3 pog'onali bo'lib, uning lad tovushqatori ud pardalarida ko'rsatilgan.

**Sho'ba** deyilganda maqomlarning shoxobchalari tushuniladi. Sho''balar masalasida ham XV-XVII asr musiqa risolalariga murojaat qilamiz. Bu risolalarda berilgan masalalar bizning kungacha yetib kelgan musiqa asarlariga ham aloqadordir va

“Shashmaqom” tarkibiga kirgan ba’zi sho‘‘balar vazifasini aniqlashga ham yordam berishi mumkin.

**Sho‘‘balar** maqomlar kabi ijro etiladigan kuy va ashulalarning lad asosidir. Ularning lad tovushqatorlari ko‘pincha maqomlarnikiga ko‘ra kichikroq diapazonda bo‘ladi. Sho‘‘balar XV-XVII asr risolalarida 24 tadir. Ular; Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashirak, Navro‘zi arab, Moxur, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Bayotiy, Hisor, Nuhuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqa’, Rakb, Sabo, Humoyun, Zavuliy, Isfahonak yoki Ruyi Iroq, Bastayi Nigor nomlari bilan mashhur bo‘lgan.

1. **Dugoh** iborasi tovush hosil qilinadigan ikki joy, ya’ni parda demakdir.
2. **Segoh.** Uch joydan, ya’ni uch pardadan chiqarib olinadigan tovushqatordir.
3. **Chorgoh.** To‘rt pardadan hosil qilinadigan tovushqatordir.
4. **Panjgoh** manbalarda ko‘rsatilishicha ikki xil bo‘ladi:

a). Panjgohi asl. U besh pog‘onali kvinta diapazondagi tovushqator bo‘lib, ikkinchi gurux jinslarning to‘rtinchi navini tashkil etadi.

b). Panjgohi zoid (orttirilgan panjgoh)

5. **Ashirak.** 10 talik, ya’ni o‘n pog‘onali tovushqator.
6. **Navro‘zi arab.** Arablarning Navro‘z bayramiga berilgan nisbati.
7. **Moxur.** (tushkin, g‘amgin). Bu sho‘‘baning mohiyati noma’lum.
8. **Navro‘zi Xoro.** Xoro-tosh va ipaklik mato ma’nolarida keladi.
9. **Navro‘zi Bayotiy.** Bayot-O‘rta Osiyolik turk qabilalarining biri.
10. **Hisor.** (Qal’a yoki tog‘ bilan o‘ralgan vodiy.) Qadimgi Tojikiston maydoniga o‘rnashgan ma’lum bir shahar nomi.
11. **Nuhuft** (maxfiy, yashirin). Manbalarda Nuhuft Buzruk maqomining sho‘‘basi, deb ko‘rsatiladi.
12. **Uzzol.** Bu pastga tushish, sakrash ma’nolarida keladi. Kuy o‘z harakatida yuqoridan pastga 4-5 pog‘ona sakrab tushishi mumkin.
13. **Avj.** (Cho‘qqi ma’nosida).
14. **Nayriz.** Isfahon maqomining sho‘‘basi bo‘lib, besh pog‘onali tovushqatordir.
15. **Mubarqa’.** (pardaga o‘ralgan). 2 pog‘onali tovushqator

16. **Rakb.** Arabcha otliq (minish) ma’nosida keladi. Bizgacha yetib kelgan maqom va xalq musiqasida “Suvoriy” nomi bilan mashhur bo‘lgan kuy va ashula yo‘llari mos keladi.
17. **Sabo.** Ko‘pchilik musiqa risolalarida Navro‘zi Sabo nomi bilan ham mashxur bo‘lib, bahor nasimi, mayin shabada ma’nolarida ishlatiladi. Saboning o‘ynash, yoshlik, sho‘hlik, sevgi ma’nolari ham bor.
18. **Humoyun** (shohona buyuk).
19. **Zovuliy.** Eronning Seiston viloyatidagi shahar. Zovuliy uch pog‘onali tovushqator bo‘lgani uchun Segoh (uch pog‘onali) nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.
20. **Isfahonak va Ruyi Iroq.** Bular asosan ikki turli tovushqatorga ega bo‘lgan bitta sho‘‘badir.
21. **Bastai Nigor.** (Nigor ismli kishining ishlagan bastasi).
22. **Nixovand.** Iroq mamlakatida mashhur shahar va unga nisbatan berilgan sho‘‘baning nomi. Nihovand yarim kechada ijro etiladi.
23. **Javziy.** (egizaklarga tegishli). Musulmon kalendarining uchinchi oyi va unga berilgan nisbati.
24. **Muxayyar** (tanlab olingan). Sakkiz pog‘onali tovushqator.

Xulosa qilib aytganda o‘n ikki maqom va bunga kirgan 6 ta ovozlar, hamda 24 ta sho‘‘balar XIII-XV asr musiqa risolalaridan shunday tasavvur etgan. Musiqa risolalari mualliflari o‘z imkoniyatlari doirasida maqom, ovoz va sho‘balarning faqatgina lad tovushqatorlarini tahminiy tarzda tushuntira olganlar. O‘n ikki maqom Markaziy Osiyoda XVII asrda ham qo‘llanilgan.

1. Avj - cho‘qqi.
2. Ritm - usul.
3. Xonanda - qo‘shiq ijrochisi.
4. Qo‘shiq - janr sifatida nisbatan kichik diapazonli kuydan iborat bo‘lib bormoq vaznidagi poetik tekstning to‘rtlikdan iborat bir bandini qamrab oladi.
5. Ashula - o‘z kuyining rivojlanganligi, diapazonaning kengligi, ritmining sezirarli darajada sinkopashligi bilan ajralib turadi.
6. Daromad - kuy va ashulaning boshlanish qismi.
7. Miyon xat - ashulaning o‘rta registri
8. Namut - ko‘rinish kelish.
9. Nimxat - ashulaning bir misra she’r bo‘lagi.
10. Parda - cholg‘u asbobida barmoq bosib, tovush chiqaradigan joy.

11. Soz - sof, tiniq ovoz bilan kuylash.
12. Lad - parda, soz, ohang, bosqich.
13. Kuy - ohang, nag‘ma.
14. Ansambl - uyg‘unlik, jo‘rovozlik.

## Adabiyotlar ro‘yxati


1. Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) Toshkent, “Print-S” nashr.
2. 2007 y.
3. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YunESKO tamg‘asi ostida
4. 2007 y.
5. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” Toshkent, 2005 y.
6. M.Xudoynazarov “An’anaviy yakkaxon qo‘shiqchilik” O‘z R FAAK
7. bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
8. M.Xudoynazarov “An’anaviy ashulachilar ansambli” O‘z R FAAK
9. bosmaxonasi, Toshkent, 2006 y.
10. I.A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston
11. sharoitida uni bartaraf etish chora va yo‘llari” Toshkent, “O‘zbekiston”
12. nashr. 2009 y.
13. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat”
14. nashr. 2008 y.
15. Sultonmurod Olim “Istiqlol – baxtim soadatim” Toshkent,
16. “O‘zbekiston” Milliy kutubxonasi nashr. 2007 y.
17. R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent,
18. 2006 y.
19. N. Qosimov “O‘zbekiston bastakorlari” Rahmatjon Tursunov “Ijod
20. dunyosi” nashriyoti, Toshkent, 2003 y.
21. I. Rajabov “Maqomlar” “San’at” nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
22. R. Nosirov “Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” “Fan” nashriyoti, Toshkent,
23. 2006 y
24. R.Tursunov, S.Mannopov “An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uslubiyoti”
25. Toshkent, 2003 y.
26. I. G‘aniyeva “Tanavorlar” Toshkent, “Uzinkomsentr” nashriyoti 2003 y.
27. X. Lutfullayev “Qo‘shiq va san’atkor” Toshkent, 2005 y.
28. O. Matyoqubov “Maqomot” “Musiqa” nashriyoti, Toshkent, 2004 y.
29. Q.Mamirov “Xalq qo‘shiqchiligi” Toshkent, 2006 y.
30. www.notarhiv.ru

# <u>Baholash mezonlari</u>

## 7- SEMESTR

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 70 ball** | | | |
| 1 | 22-27 fevral | Ijodiy | 17 ball |
| 2 | 22-29 mart | Ijodiy | 18 ball |
| 3 | 18-23 aprel | Ijodiy | 17 ball |
| 4 | 6-11 iyun | Ijodiy | 18 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| 5 | 27-9 iyun, iyul | Ijodiy | 30 ball |

## 8-SEMESTR

| № | Baholash vaqti | Baholash usuli | Ajratilgan ball |
|---|---|---|---|
| **Joriy nazorat – 70 ball** | | | |
| 1 | 23-30 sentabr | Ijodiy | 17 ball |
| 2 | 26-31 oktabr | Ijodiy | 18 ball |
| 3 | 23-28 noyabr | Ijodiy | 17 ball |
| 4 | 21-26 dekabr | Ijodiy | 18 ball |
| **Yakuniy nazorat – 30 ball** | | | |
| 5 | 18-30 yanvar | Ijodiy | 30 ball |

# Baholash ballar taqsimoti

| 16 | | 17 | | 18 | | 19 | | 20 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **"3" baho** | 8,8-11,2 | **"3" baho** | 9,4-11,9 | **"3" baho** | 9,9-12,6 | **"3" baho** | 10,5-13,3 | **"3" baho** | 11-14. |
| **"4" baho** | 11,3-13,6 | **"4" baho** | 12-14,5 | **"4" baho** | 12,7-15,3 | **"4" baho** | 13,4-16,2 | **"4" baho** | 14,2-17,1 |
| **"5" baho** | 13,7-16 | **"5" baho** | 14,6-17 | **"5" baho** | 15,4-18 | **"5" baho** | 16,3-19 | **"5" baho** | 17,2-20 |

| 26 | | 27 | | 28 | | 29 | | 30 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **"3" baho** | 14,3-18,2 | **"3" baho** | 15-19 | **"3" baho** | 15,4-19,6 | **"3" baho** | 16-20 | **"3" baho** | 16,5-21 |
| **"4" baho** | 18,3-22,1 | **"4" baho** | 19,1-23 | **"4" baho** | 19,7-23,8 | **"4" baho** | 21-24,6 | **"4" baho** | 21,3-25,5 |
| **"5" baho** | 22,3-26 | **"5" baho** | 23,1-27 | **"5" baho** | 24-28 | **"5" baho** | 25-29 | **"5" baho** | 25,8-30 |

| 31 | | 32 | | 33 | | 34 | | 35 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **"3" baho** | 17-21,7 | **"3" baho** | 17,6-22,4 | **"3" baho** | 18,1-23,1 | **"3" baho** | 18,7-23,8 | **"3" baho** | 19,2-24,5 |
| **"4" baho** | 22-26,3 | **"4" baho** | 22,7-27,2 | **"4" baho** | 23,4-28 | **"4" baho** | 24,1-28,9 | **"4" baho** | 24,8-29,7 |
| **"5" baho** | 26,6-31 | **"5" baho** | 27,5-32 | **"5" baho** | 28,3-33 | **"5" baho** | 29,2-34 | **"5" baho** | 30,1-35 |